

MUSIQANING RAQS BILAN UYG'UNLIGI VA BASTAKORLARNING IJODIY YONDASHUVI

<https://doi.org/10.70728/orien.v07.i02.005>

Akmaljon Abdixamidov
Qo'qon davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqs san'atini rivojlanishida musiqaning o'rni, musiqa va raqsning uzviy bog'liqligi, bastakorlarning ijodiy yondashuvlari aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: asar, bastakor, musiqa, qo'shiq, xoreograf, ommaviy, raqs, teatr, baletmeyster, spektakl

HARMONY OF MUSIC WITH DANCE AND THE CREATIVE APPROACH OF COMPOSERS

Akmaljon Abdikhamidov
Kokand State University

Abstract: This article reflects the role of music in the development of dance, the inextricable connection between music and dance, and the creative approaches of composers.

Keywords: the work, composer, music, poem, choreographer, public, dance, theatre, baletmeister, performance

O'zbek raqs san'ati ming yillar mobaynida insonning jamiyatdagi turmush tarzini va umuman ijtimoiy hayotini aks ettiruvchi o'ziga xos oynasi, ya'ni aksini ko'rsatuvchi vosita bo'lgan.

O'tmishdan to shu kunga qadar xalq ashulalari, turmush shodliklari va tashvishlariga to'la termalari doimiy tarzda ishlati kelingan va saqlanib qolganligi ijtimoiy holatdir. Kishilar tabiat bergan ilohiy muhabbat va in'omlardan kezi kelganda zavqlanib, ba'zida iztirob chekib yashaydi. Ammo umrining davomiyligi va mazmunini kundalik mehnat jarayonlari tashkil qiladi. Ritmik ohanglar va musiqiy kompozitsiyalar turli xil raqs shakllarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Musiqaning oddiy va eng qadimiy turi - inson qo'shig'idir. Inson turli kuchli-kuchsiz tovushlarni ijro etar ekan, unda har xil kechinmalarni ifodalaydi. Buning

sababini tushunmoq uchun inson nutqining muhim xususiyati - intonatsiyaga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir¹.

Inson gapirgan paytda uning fikr va his-tuygulari faqat soʻzlaridagina ifodalanmaydi; bunda uning jarangdorligi - tovush tonining balandlashishi va pastlashishi, pauzalari, tezlashish va sekinlashish, tembr (tovushning "rang-barangligi"), soʻzlarning turli joylarida urgʻu ishlatish va hokazolar ham katta rol oʻynaydi. Masalan, birgina "Sen nima qilding" ning oʻzi bir necha xil talaffuz etilishi mumkin va har safar oʻziga xos fikr (gʻazab, yolvorish, taʼna, zarda, achinish, kulish, koʻrolmaslik yoki aksincha, maʼqullash, quvonch, hayajon, ajablanish va boshhalar) ifodalanishi mumkin. Bularning hammasi intonatsiya xarakteriga, nutqning "musiqqa" siga bogʻliq.

Inson tovushi bilan ijro etiluvchi kuy soʻzsiz nutqdir: bunda uning intonatsiyasi kuchayadi, chuqurlashadi. Mashhur musiqqa ijodchilaridan biri Musorgskiy musiqani "inson nutqining eng nozik badiiy ifodasi" deb atagan edi. Bunda kompozitor nutq jarangdorligini nazarda tutgan, albatta.

Lekin buni asl maʼnosida tushunish toʻgʻri boʻlmaydi. Musiqqa koʻp jihatdan inson nutqiga asoslanadi, uning ifodali intonatsiyasi bilan uzviy bogʻliq boʻladi. Shunday boʻlsa ham u oʻziga xos, mustaqil hodisadir. Nutqda ham, ashullada ham ton doimiy oʻzgarishda boʻladi: balandlashib, pastlashib turadi. Bu bilan birga, gapirgan paytda tovush "sirgʻanib", eng past tondan eng baland tongacha koʻtarilib va aksincha, pastlashib tursa, musiqada tovush muzika notasining "pogʻonalari" boʻyicha harakatlanadi. Baland-pastligi jihatidan turlicha boʻlgan tovushlar birlashib melodiyanı vujudga keltiradi.

Musiqqa nazariyasi bilan koʻp shugʻullangan kompozitor A.Serov musiqani: "Inson yoki biror musiqqa asbobi tovushining baland-pastligini aniqlay oluvchi, oʻzi ovoz jihatidan inson tovushiga maʼlum darajada yaqin turuvchi alohida poetik nutqdir", deb tariflagan edi. Haqiqatan ham, musiqqa tinglovchilarning ichki kechinmasiga taʼsir qiluvchi oʻziga xos nutqdir: musiqqa kechinmalarni "eshitarli" qiladi, kuyga, uzviy tovushlarga aylantiradi. Xuddi raqsdagi kabi kechinmalar "koʻrinarli" tus oladi, ular harakat va imo-ishoralarda gavdalanadi.

Musiqqa ham raqs kabi insonning kundalik hayotida mavjud. Quvonch tufayli hayajonlanish yoki gʻamli ingrash va tashvish tortishlar ham aslida oddiy "*kuy-lardir*". Lekin bularni raqs sanʼatini hayajonlanib oʻyin tushib yuborish bilan yoki tashvish va alamdand, "qoʻllarni yozib" yigʻlash bilan aralashtirib boʻlmagani kabi, musiqqa sanʼatini ham ular bilan aralashtirib yuborish xatodir.

Haqiqiy musiqqa asarlari chuqur oʻylangan va aniq shaklga solingan tovush obrazlariga ega boʻladi. Musiqqa asarlari ham barcha ifodali sanʼatlar kabi ritmika

¹ Oʻzbek musiqasi tarixi. Toshkent, 198L 5-b.

asosida tashkil topgan motivlardan iboratdir. Bunday hollarda motiv turli balandliklarga ega bo'lgan bir qancha tovushlardan tashkil topadi.

Musiqqa bilan raqs bir-biriga juda ham yaqin. Shu ma'noda bu boshqa-boshqa san'atga oid, ammo bir prinsip asosida tuzilgan asarlardir. Ularni bir-biriga chog'ishtirib ko'rish qiziq va foydalidir.

Raqs musiqaga juda oson moslashib, ikki "yo'nalishdan", "qatordan", harakatlar va tovushlar qatoridan iborat bir butun asarga aylanadi. Raqqos ma'lum vaqt birligi ichida shu birlikka teng harakatni bajaradi va bu tomoshabin ko'zi o'ngida raqsning tasviriy ritmini yaratadi. Sozanda ham shu vaqt birligi ichida² musiqaning o'shanga teng keluvchi ritmini hosil silib, bir xil miqdordagi tovushlarni ijro etadi. Ikkala ritm bir-biriga qo'shib ketadi. Ikkinchidan, ma'lum ma'noni ifodalovchi musiqqa motivlari, raqs motivlari - raqqos harakati va imo-ishoralari birlashib ketadi.

Aslida har qanday musiqaga "raqsga tushsa" bo'laveradi. Bu bilan esa "ko'rinarli", "shakily" musiqqa yaratilgandek bo'ladi. Kuy yuqoridagi kechinmalarga monand harakat va imo-ishoralarga aylanadi.

Hozir, odatda raqslar musiqqa jo'rligida ijro etiladi. Lekin bundan raqsni musiqasiz tasavvur qilib bo'lmaydi, degan ma'no chiqmaydi. Musiqqa raqsni boshqarib, jo'r bo'lib turadi; u raqqosga ritmdan chiqib ketmaslikka yordam berib boradi va boshqa jihatdan esa bu ritmlarni tomoshabinlarga "ta'kidlab" turadi. Lekin raqs musiqasiz ham ijro etilishi mumkin. Ammo musiqasiz ijroda badiiy taassurot bir qadar kuchsizlashadi. Musiqasiz ijro etiluvchi yoki do'mbiraning bir ovozli ritmik usulida ijro etiluvchi raqslar, ayniqsa sharq xalqlarida ko'p uchraydi. Do'mbiraning ovozini to'la ma'nodagi musiqqa deb bo'lmaydi. Ko'pincha raqqosning o'zi eshitilari ritm hosil qilib o'ynaganini ko'rish ham mumkin - u oyoq va qo'llari bilan "takt hosil qilib" o'ynaydi.

Musiqqa jo'rligidagi raqsda ham inson ashulasi bilan musiqqa asbobi o'rtasida qanday munosabat bo'lsa, shunday munosabat bo'ladi. Odam ashula aytadi, orkestr ham xuddi shu narsani ijro etadi, ammo u musiqqa obrazini kuchli va to'laqonli ijro etadi. Inson ovozi hosil qiluvchi ritmik musiqani raqsda gavda harakati bilan yaratadi.

Yuqorida aytilganlardan ko'rinib turibdiki, musiqqa o'z mazmun xarakteri jihatidan raqsga yaqin turadi; u o'zining tovush obrazlari orqali insonning ko'p qirrali kechinmasini ifoda etadi. Musiqqa hammaga tanish bo'lgan inson tovushining "til" musiqasiga - hayajonli ovoz, azobli ingrash, baqirib-chaqirish, alamli faryod, qayg'udan o'kirish, shikoyat qilib yig'lash, quvonchdan qiyqirish, erkalashga xos intonatsiya, xayol surish, qiqirlab kulish va boshqa turli oddiy "musiqalar" ga asoslanadi. Xuddi ana shular asosida mukammal obrazlar yaratiladi. Har qanday musiqqa asarida ham, bu musiqqa san'ati asosini his etish "qichqiriq" yoki "ingrash" ni, "chaqiriq" yoki "uvillab yig'lash" va hokazolarni uchratish mumkin emas. Lekin

2 A. N. Serov—Kripticheskiye stati. Spb. t. IV. 1895, str. 1585:

haqiqiy musiqa asarlarida bular ritmik musiqa motivlariga aylanib qayta tuziladi. Bu motivlar inson va uning hayoti haqidagi emotsional tafakkurni aks ettiradi.

“Butun atrof cho‘lu biyobon” nomli mashhur xalq qo‘shig‘ida inson ichki dunyosining ajoyib obrazi yaratilgan. Qo‘shiqda inson hayot bilan g‘amgin vidolashsada, jasoratni qo‘ldan bermasligi ifodalangan. Qo‘shiq hazin, yig‘loqi motivlardan iborat. Bu motivlar ta’sirchan, kuchli ritm asosida bir kuyga birlashtirilgan. Mukammal asar va uning musiqa obrazi ana shunday yaratilgan.

“Attorlar” nomli boshqa bir rus xalq qo‘shig‘ida uzoq-uzoqlardan eshitiluvchi shijoatli, quvonchli baqirib-chaqirishlarga, uv tortib yig‘lash, g‘am-g‘ussalar qo‘shilib ketadi. Aleksandr Blok bu kuyni “g‘amgin g‘alaba” deb juda to‘g‘ri baholagan edi. Qo‘shiqda eng og‘ir sharoitlarda ham kutilmaganda o‘zini o‘nglab ola biluvchi, jasorat ko‘rsatuvchi, hayotni sevuvchi, o‘tmish azob-uqubatlarini doimo yodda saqlovchi rus xalqining xarakteri haqqoniy ifodalangan.

Raqs san’ati o‘zbek va dunyo xalqlari tarixida qadimgi san’at turlaridan sanaladi. Uning chashma ildizlari ibtidoiy jamiyat davriga borib taqaladi. Mazkur jamiyatning ilk davrlarida inson totemistik va animizm dunyoqarashlari bilan tabiat hodisalarining tub sabablarini tushunib yetolmay: yashin, momaqaldiraq, bo‘ron, zilzila, quyosh, oy tutilishlari va boshqa tabiiy ofatlamil ilohiy kuch deb, ramziy obrazlar yaratdilar. Jodu va afsun yo‘li bilan hayvonlarga sig‘inib “pantomima” orqali ularga taqlid qilib o‘ynaganlar³. Odamlar hayvon qiyofasiga kirib turli harakatlar bilan ilohiyatga sig‘inganlar, diniy marosimlar otkazganlar. Zamonlar o‘tishi bilan ovchilik, chorvachilik qatori dehqonchilik, bog‘dorchilik, hunannandchilikning ham rivojlanishi, yangi yerli qabila, xalqlar, yangi sinflarning maydonga kelishi, davlatlarning paydo bo‘lishi, ishlab chiqarish kuchlarimng ko‘payishi sababli yangi diniy oqimlar paydo bo‘lishi va insonlar jamiyati bosqichma-bosqich rivojlanishi tufayli bir qator san’at turlari ham taraqqiy etdi. Asrlar davomida dunyo xalqlarining o‘ziga xos, milliy raqs san’ati turli yo‘nalishlarda rivojlandi. Asrlar davomida o‘zbek xalqining ham raqs san’ati rivoj topdi. O‘zbekistonda Buxoro, Xorazm va Farg‘ona-Toshkent raqs maktablari bunyodga keidi⁴. Shuni aytib o‘tish joizki, o‘zbek raqs san’ati XX asrning 20-yillariga qadar asosan xonadon-bazmlarda ayollar davralarida ijro etilib rivojlangan bo‘lsa, sobiq sovet davrida katta zal sahnalarida, teatr spektakllarida keng quloch yozib rivojlandi. Yuqorida tilga olingan raqs maktablarining an‘analarini XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab ijod qilgan san’atkorlar Usta Olim Komilov, Yusuf qiziq Shakarjonov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg‘unboyeva, Roziya Karimova, Gavhar Rahimova, Reyim ota Olloberganov,

³ Akmaljon Abdixamidov. BALETMEYSTERNING KO‘P QIRRALI ISTE‘DODI. "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal / <https://oac.dsml-qf.uz>

⁴ Avdeyeva. O‘zbek milliy raqs tarixidan. Toshkent. 2001y.

Beginxon Komilova, To'ychi Inog'omov va boshqalar o'nlab raqs ustalari kelgusi avlodga yetkazib berdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avdeyeva. O'zbek milliy raqs tarixidan. Toshkent. 2001y.
2. G. Hamrayeva. Raqsning milliy qiyofasi. Toshkent. 2012y.
3. Akmaljon Abdikhamidov. Representatives of the Uzbek National Dance Art. European Journal of Innovation in Nonformal Education Volume 3, No 11 | Nov - 2023 | Page | 5 <http://innovatus.es/index.php/ejine>.
4. Akmaljon Abdixamidov. BALETMEYSTERNING KO'P QIRRALI ISTE'DODI. "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal / <https://oac.dsmi-qf.uz>
5. Abdixamidov Akmaljon BALETMEYSTER VA UNING IJODIY FAOLIYATI | Oriental Art and Culture